

**XEBEAS KORPUS INSTITUTI - FUQAROLIK HUQUQLARINING
KAFILIDIR**

Sodikova Manzuraxon Nu'mandjanovna,
Andijon davlat universiteti Huquq-iqtisod fakulteti
Huquq va ma'naviyat asoslari kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotasiya. Ushbu maqolada inson va fuqarolarning huquq, erkinliklari himoya qilinishining yangi "Xabeas korpus" va "Miranda qoidasi" instituti qoidalarining normativ huquqiy hujjatlarda ifodalanishi va uni inson va fuqarolarning shaxsiy huquqlarini amalga oshirishda bevosita qo'llanilish tartiblari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Habeas Corpus akti, "Miranda qoidasi", inson huquqlari kategoriyalari, tergov va prosessual harakatlar, "Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro Pakt.

Аннотация. В данной статье представлена информация о закреплении в нормативно-правовых актах положений нового института защиты прав и свобод человека и гражданина - "Хабейас корпус" и "Правила Миранды", а также о порядке их непосредственного применения при реализации личных прав человека и гражданина.

Ключевые слова: Акт Хабейас Корпус, "Правило Миранды", категории прав человека, следственные и процессуальные действия, Международный пакт о гражданских и политических правах.

Abstract. This article provides information on the expression of the new Habeas Corpus and Miranda Rule institutes for the protection of human and civil rights and freedoms in normative legal acts, and the procedures for their direct application in the exercise of the personal rights of individuals and citizens.

Keywords: Habeas Corpus Act, "Miranda Rule," human rights categories, investigative and procedural actions, International Covenant on Civil and Political Rights.

Kirish. XX asrga kelib inson huquqlari muammosi bir davlat yurisdiksiyasidan tashqariga chiqa boshladi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushining dahshatli oqibatlarini inson huquqlarini himoya qilish sohasida maxsus xalqaro hujjatlarni ishlab chiqish va ularni himoya qilishga qaratilgan xalqaro mexanizmni yaratishni xalqaro hamjamiyat oldiga asosiy vazifa qilib qo'ydi[195].

"Qayd etish kerakki, - deydi K.Vasak, - inson huquqlari va erkinliklari inson hayotining turli sohalarini: shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini ta'minlab beradi. Shu munosabat bilan ular guruhlar va nomlanish bo'yicha turlarga bo'linadi. Biroq, bu huquqlar nafaqat hayotiy faoliyatning turli sohalariga taaluqlidir, balki ular paydo bo'lish vaqti bo'yicha ham farqlanadi. Shu erda esa - inson huquqlari avlodlari paydo bo'lgan"[2.19].

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga oid milliy hamda xalqaro huquqiy manbalar tahlil qilindi. Xususan, Karel Vasakning inson huquqlarini avlodlarga ajratish konsepsiyasi, "Habeas Corpus Act" hamda "Miranda qoidasi"ning tarixiy-huquqiy asoslari o'rganildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt normalari tahlil qilindi. Tadqiqotlarda "Xabeas korpus" instituti va "Miranda

qoidasi” insonning shaxsiy daxlsizligi, erkinligi va adolatli sudlov huquqining muhim kafolati sifatida baholanishi qayd etildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot qiyosiy-huquqiy, tarixiy va tahliliy metodlar asosida olib borildi. Xalqaro huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda inson huquqlariga oid normativ-huquqiy manbalar o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida “Xabeas korpus” va “Miranda qoidasi” institutlarining tarixiy rivojlanishi, ularning huquqiy mazmuni hamda amaliy qo‘llanish mexanizmlari qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, sud-tergov amaliyotiga oid statistik ma’lumotlar asosida mazkur institutlarning inson huquqlarini himoya qilishdagi samaradorligi baholandi.

Tahlil va natijalar. Ma’lum bir davrlarda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarining unga tegishliligi hamda bu huquq, erkinliklarni ta’minlab berilishi va unga rioya etilshining huquqiy mexanizmini yaratuvchi davrlarni tushunamiz. Inson huquqlarining normativ-huquqiy asosda rivojlanib borishini avlodlarga bo‘lib o‘rganish huquq-erkinliklarni mazmun mohiyatini to‘g‘ri tushunishga, ularni tizimlashtirishga yordam beradi. Fransuz olimi K.Vasak inson huquqlarini uch avlodga bo‘lish konsepsiyasini ilgari surgan edi.

Unga ko‘ra inson huquqlari kategoriyalarini quyidagi avlodlarga bo‘lgan:

- 1-avlod huquqlari (XVII asrdan boshlangan) -fuqarolik va siyosiy huquqlar;
- 2-avlod huquqlari (XIX asr 2-yarmi va XX asr 1-yarmidan boshlangan) – iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar;
- 3-bosqich avlod huquqlari (XX asrning 2-yarmidan boshlangan) - jamoaviy (kollektiv) huquqlar.

1-avlod inson huquqlarining bosqichida fuqarolik va siyosiy huquqlarga oid bo‘lgan qonunchilik shakllanganini ko‘rishimiz mumkin. Bu qonunchilik tizimiga dastlabki, 1215-yilgi “Erkinliklarning buyuk xartiyasi”ni olishimiz mumkin.

1-avlod huquqlari asosan 1642-1649-yillardagi ingliz inqilobi bilan bog‘lanadi. 1679-yilning 26-mayidagi “Raiyatning erkinligini eng yaxshi tarzda ta’minlash hamda dengiz ortiga surgun qilishlarning oldini olish haqidagi” hujjat (Habeas Corpus Act). Habeas Corpus akti, qonuni 1679-yil ingliz parlamenti tomonidan qabul qilingan Buyuk Britaniyaning asosiy konstitusiyaviy aktlaridan biri hisoblanadi. Ushbu aktga ko‘ra qamoqqa olingan shaxs yoki uning qonuniy vakillari, yoki boshqa bir fuqaro nima sababdan hibsga olinayotgani yoki qamoqqa olish to‘g‘risidagi hujjat bo‘yicha sudga murojaat qilishi va hibsga olish yoki ushlab turishning qonunniyligini tekshirish uchun maxsus sud qariorini talab qilishi mumkin. Biror bir huquqbuzarlikda gumonlanib ushlab turilgan shaxs ushlab turishlari sabablarini va bu ushlab turishning qonuniyligini talab qilish huquqiga ega bo‘ladi. Sudning qarori bo‘lmagan taqdirda shaxsni 48 soatdan ortiq ushlab turish mumkin emas. Habeas korpus so‘zini tarjimasini (xabere - “ega bo‘lmoq” va korpus, - “tana”) lotincha habeas corpus ad subjiciendum iborasining bir qismi bo‘lib, “qo‘lga olingan shaxs haqida sudga taqdim etish” ma’nosini

bildiradi. Fuqarolik huquqi yurisdiksiyalarining ko'p holatlarida noqonuniy hibsga olinganlar uchun shu kabi himoya vositalaridan foydalaniladi, lekin bular har doim ham xabeas korpus deb atalavermaydi. Ba'zi ispan tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda nohaq ushlab turilganlik, yoki qamoqqa olish uchun amparo libertad ("erkinlikni himoya qilish") alternativ (muqobil) normasi qo'llaniladi.

Inson huquq va erkinliklari ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy ustuvor vazifasidir. 2023-yil 30-aprelda referendum natijasiga ko'ra qabul qilinib, shu yil 1-maydan qonuniy kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida muhim bir kafolat- har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, yashash huquqi uning ajralmas huquqi ekanligi va u qonun bilan muhofaza qilinishi, hamda inson hayotiga suiqasd qilish og'ir jinoyat sifatida kvalifikasiya qilinishi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga egaligi to'g'risidagi normalar II Bo'lim "Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari"ning VII bobi "Shaxsiy huquq va erkinliklari" deb nomlangan bobida belgilangan. Jumladan, ushbu bobning 27-moddasida: "Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi. Shaxs sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart"-deb mustahkamlangan norma orqali O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham halqaro akt Xabeas korpus akti qo'llanilayotganligi isbotidir. "Xabeas korpus akt" instituti O'zbekiston Respublikasida 2008-yildan tadbir etilgan bo'lib, uning qo'llanilish doirasi izchillik bilan yillar davomida kengaytirilib borilmoqda, tergov jarayoni ustidan sud nazorati qat'iy ravishda kuchaytirilmoqda.

Xususan, 2008-2016-yillarda qator prosessual majburlov choralarini (qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish, amnistiya aktini qo'llashga oid iltimosnomani ko'rib chiqish, uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi) qo'llash vakolati sudlarga berilgan. Misol tariqasida birgina qamoq ehtiyot chorasining sudlar tomonidan qo'llanilishi amaliyotidan olsak, 2022-yilda tergov organlaridan sudlarga kelib tushgan jami 24 ming 118ta iltimosnomadan 23 ming 503 tasi qanoatlantirilgan, 485 tasi rad etilgan, ya'ni 485 shaxsga nisbatan asossiz ravishda qamoq ehtiyot chorasi qo'llanilishining oldi olingan. 2017-2021-yillarda sud nazorati doirasi yanada kengaytirilib, shaxsning konstitusiyaviy huquqlarini cheklashga doir bir qancha tergov va prosessual harakatlarga (pasportning amal qilishini to'xtatib turish, ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish, pochta-tetlegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish, murdani ekzgumasiya qilish, qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish) sanksiya berish sudlar vakolatiga o'tkazildi. Inson huquqlarini amalga oshirishda "Xabeas korpus" va "Miranda qoidasi" instituti qoidalarini qo'llash shaxs huquq va erkinliklarining adolatli himoya qilinishidir. "Miranda qoidasi"

deyarli barcha rivojlangan davlatlarda amal qiladigan, jinoyat sodir etishda gumon bilan ushlangan shaxs huquqlarining asosiy kafolati hisoblanadi.

Bu qoida AQSHda birinchi bor kiritilgan yuridik talab bo'lib, unga binoan, har qanday politsiya xodimi ushlash vaqtida shaxsga uning prosessual huquqlarini tushuntirishi va albatta, ushlangan shaxsdan mazkur tushuntirishlar mohiyatini anglagani borasida ijobiy javob olishi talab etiladi.

Xususan, shaxs jinoyat sodir etishda gumonlanib, ushlangan vaqtida quyidagilardan aniqlik xabardor etilishi shart:

sukut saqlash huquqiga egasiz, aytgan har qanday gapingiz sudda sizga qarshi ishlatilishi mumkin;

advokat bilan maslahatlashingiz mumkin va bu advokat birinchi so'roq davomida ishtirok etishi mumkin;

agar advokat yollash uchun imkoniyatingiz bo'lmasa, sizga bepul ravishda advokat xizmati ta'minlanadi[4].

Ushbu "Miranda qoidasi" institutining qoidalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-28-29-moddalariga ham kiritilgan. Bu inson va fuqarolar huquq va erkinliklarining huquqiy amalga oshirishning asosidir. Ushlangan shaxs o'z prosessual huquqlarini yaxshi bilmagan sharoitda u tergov organlari tomonidan aybiga iqrorlik yoki o'ziga qarshi ko'rsatmalar berishga majburlanishi xavfi mavjud. Aynan prosessual ushlash vaqtida inson ruhan stress holatida bo'ladi va huquqiy ko'makka ayniqsa muhtojdir, chunki u bunday murakkab vaziyatda jinoyatda aybi borligini isbotlash majburiyati uning emas, aksincha, butunlay tergov organlariga yuklatilganini anglay olmaydi. Sukut saqlash huquqi esa gumonlanayotgan shaxsga o'zining jinoyat sodir etishda aybini isbotlash jarayonida ishtirok etmaslik imkoniyatini kafolatlaydi. "Miranda qoidasi"ning konstitusiyaviy mustahkamlanishi jinoyat ishi xolis tergov qilinishi va tergov organlari tomonidan har qanday g'ayriqonuniy harakatlar va taqiqlangan usullar qo'llanilishining oldini oladi. Mazkur qoidaga ko'ra, shaxsning huquqlari u yaxshi tushunadigan tilde tushuntirilishi talab etiladi.[4]

"Miranda qoidasi"ning konstitusiyaviy mustahkamlanishi jinoyat ishi xolis tergov qilinishi va tergov organlari tomonidan har qanday g'ayriqonuniy harakatlar va taqiqlangan usullar qo'llanilishining oldini oladi. Mazkur qoidaga ko'ra, shaxsning huquqlari u yaxshi tushunadigan tilda tushuntirilishi talab etiladi. Ushbu qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida belgilab qo'yilgan. Bu aynan uning ona tili bo'lishi shart bo'lmay, shaxs odatda muloqot qiladigan va yaxshi tushunadigan til bo'lishi kerak. Ushbu qoida ushlangan shaxsga uning huquqlari real ta'minlanishini kafolatlaydi va unga nisbatan tergov organlari tomonidan aldov, noto'g'ri ma'lumot berish va boshqa har qanday qonunga xilof usullar qo'llanilishiga yo'l qo'ymaydi.

Xulosa. Shaxsning sukut saqlash huquqi inson huquqlariga oid nufuzli xalqaro hujjatlarda ham aks etgan. Mazkur kafolat “Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro Paktning 14-moddasidagi “o‘ziga o‘zi qarshi ko‘rsatuv berishga yoki o‘zini aybdor deb tan olishga majbur qilinmaslik” qoidasida yanada rivojlantirilgan. Mazkur talab qator davlatlar konstitutsiyalarida (Niderlandiya, Ispaniya, Gresiya, Xorvatiya, Sloveniya, Rossiya, Ukraina, Gruziya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova) mustahkamlangan. Ushbu qoida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalarida ham bayon qilingan bo‘lib, jumladan 28-moddasida:” Agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas”[6.] - deb ko‘rsatib o‘tilgan.

Yangi tahrirdagi Bosh qonunimizda “Xabeas korpus” institutining mantiqiy izchillikda kengaytirilishi orqali insonlarning shaxsiy yashash huquqi, sha’ni va qadr-qimmati, xususiy mulk va uy-joy daxlsizligi, yashash joyini erkin tanlash huquqlarining himoyalaniishi, hamda mazkur huquqlardan sudning qarorisiz mahrum etilishiga yo‘l qo‘yilmasligini belgilab qo‘yilishi fuqarolarimizning daxlsizlik kafolatlarini yanada qat’iy mustahkamlaydi. Butun jahon tomonidan tan olinib e’tirof etilgan normalar konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanib, fuqarolarimiz huquq va erkinliklarini himoya qilinishining yangi hamda ishonchli maxanzimini ishga soladi. Bu esa fuqarolarimizni asossiz va qonun normalariga zid jinoiy ta’qibdan, dastlabki surishturuv va tergov jarayonlarida gumonlanayotgan, ayblanayotgan shaxslar huquqlari buzilishini oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mo‘minov A.R, Tillaboev M.A. “Inson huquqlari” darslik, Toshkent, “Adolat”-2013. -95.b.
2. Vasak.K.A.30-year struggle//YUNESKOCourier-1977. -Nov. -P.19.
3. Муждународное сотрудничества в области прав человека: Документы и материалы. - М.:1993. Вып.2.-С.72-79.
4. <https://gk-usbekistan.de/uz/2023/03/23/>
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston”. Toshkent-2023.